



AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O'QITISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

¹Xoldarova Iroda Valijonovna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Farg'ona davlat universiteti

²Akbarova Maftunaxon Dilmurodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Ta'lim nazariyasi va metodikasi magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7936711>

ARTICLE INFO

Received: 06th May 2023

Accepted: 14th May 2023

Online: 15th May 2023

KEY WORDS

Multimedia texnologiyalari,
boshlang'ich ta'lim, istiqbolli
yo'nalishlar, kompyuter
dasturlari, loyiha faoliyati.

ABSTRACT

Maqolada axborot-kompyuter texnologiyalarining eng jadal rivojlanayotgan va istiqbolli yo'nalishlaridan biri – multimedia texnologiyalari va ulardan boshlang'ich ta'lim tizimida foydalanish ko'rib chiqiladi.

Axborot texnologiyalari keng ma'noda ob'ekt, jarayon, hodisalar to'g'risida ma'lumotlarni olish, to'plash, qayta ishlash, uzatish vositalari va usullarining kombinatsiyasidan foydalaniladigan jarayonni anglatadi. Bunda ta'lim oluvchiga vizual axborotli ma'lumotlarni qiziqarli ravishda taqdim etishga keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bois, savod o'rgatish jarayonining ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot texnologiyalari vositalarini joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-fevraldagi 161-sonli qarorida "elektron o'qitish bazasini yaratish, ta'lim muassasalarining axborot infratuzilmasini shakllantirish; barcha o'quvchilarni kompyuter va axborot texnologiyalari bilan ishlashga keng ko'lamda o'qitishni ta'minlash" kabi ustuvor vazifalar belgilab qo'yilgan¹. Mazkur qarorda belgilab qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun zamonaviy texnika vositalariga asoslangan holda kompyuter texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiiq etish davr talabiga aylangan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, umumta'lim maktab o'quvchilarini ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot texnologiyalari vositalarini kengroq tadbiiq etish jiddiy zaruratga aylangan. Bu borada, jumladan ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini joriy etishning nazariyasi va metodologiyasi hamda foydalanish metodikasini takomillashtirish, masofali o'qitish texnologiyalarini qo'llash muammolari, o'quv jarayonida elektron o'quv-uslubiy majmualar, elektron ta'lim resurslari va amaliy dasturlarni qo'llashga oid, shunga o'xshash, ya'ni, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishga oid tadqiqotlar Rossiya davlat boshqaruv akademiyasida o'tkazilgan.

¹ Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019- йил 23- февралдаги 161-сонли қарори. –

Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.19.161.2600-сон 25.02.2019 й.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quv ma'lumotlarini vizual shaklda taqdim etish, o'quvchilarning bilim darajasi 10-20 % ga, o'quv sifati 15-20 % ga oshirilganligi ilmiy asoslab berilgan.

SHuningdek, sust o'zlashtirayotgan o'quvchilar o'qish sifatining yuqori o'sishi kuzatilgan. Bunga har bir o'quvchi uchun eng maqbul bo'lgan individual o'quv yo'llarini tanlash imkoniyati yordam bergan, bu esa yaxshi va sust o'zlashtirayotgan o'quvchilarni tayyorlash darajasi o'rtasidagi tafovutning sezilarli darajada pasayishini ta'minlagan. Bugungi kunda, savod o'rgatish jarayonida axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish an'anaviy usullarga nisbatan samarali bo'lsa-da, uning didaktik imkoniyatlariga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligiga tadqiqotimiz davomida amin bo'ldik. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun avvalo ta'lim tizimida kompyuter texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini joriy etishda mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llari bo'yicha shug'ullangan: H.T.Omonov, N.X.Xo'jaev, S.A.Madyarova, E.U.Eshjonov, M.G.Naderina, P.M.Jalolova, H.B.Nikadambaeva, V.P.Golov, I.I.Driga, G.I.Rax kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida keltirilgan taklif va tavsiyalarin o'rganib chiqildi. Bunda quyidagi muammolar borligi aniqlandi:

1. Texnik muammolar. Bu ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishga oid qo'yiladigan talablarni, ularni amalda qo'llash xususiyatlarini takomillashtirishni talab etadi;
2. Dasturiy ta'minot muammolari. Bu ta'lim jarayonida foydalanish uchun pedagogik dasturiy vositalarning tarkib va turlarini, ularning qo'llashga oid xususiyatlarini takomillashtirishni anglatadi;
3. Tayyorgarlik muammolari. Bu o'qituvchi va o'quvchilarning axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyati va malakasi bilan bog'liqdir. Bu borada, M.G.Naderinaning fikriga ko'ra, geografiya ta'limiga oid ma'lumotlarning jozibadorligiga qaramay, o'rganilayotgan o'quv ma'lumotlarning abstraktsiyasini katta qismi, maxsus atamalarining ko'pligi, moslashtirilgan devor xaritalarining yetishmasligi, o'quvchilarning dunyo haqidagi bilimlarining egallash imkoniyati cheklanganligi va shu kabi muammolar borligi tufayli ayni paytda ta'lim oluvchilar uchun muayyan qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda. Mazkur muammolarni multimedia vositalaridan foydalangan holda o'qitish jarayonini sezilarli darajada optimallashtirish mumkin [75; 5-b.].

H.T.Omonov, N.X.Xo'jaev, S.A.Madyarova, E.U.Eshjonovlarning fikriga ko'ra, axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan, yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallanganligi sababli, ularni ta'lim tizimiga yanada kengroq joriy etish usullarini qayta ko'rib chiqish zaruriyati mavjud. P.M.Jalolovanning fikriga ko'ra, fanlarning kompyuter texnologiyalari yordamida o'qitish muammolarini bartaraf etish uchun ta'lim xizmatlarini vizuallashtirish, ta'lim oluvchining bilimini baholash va nazorat qilishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish lozim. H.B.Nikadambayevaning fikriga ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishni keng ko'lamda tadbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun ta'lim muassasalarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, o'qitish tizimini takomillashtirish, o'quv fanlaridan elektron



o'quv-metodik ta'minotlar yaratishni jadallashtirishni va ularni o'quv jarayoniga faol tadbiriq etish bilan ta'lim samaradorligini orttirishni taqozo etadi.

N.N. Baranskiyning fikriga ko'ra, boshqa fanlarning hech birida savod o'rgatish jarayoni kabi vizualizatsiya va o'yin-kulgiga ehtiyoj sezmaydi. SHu bilan birga, biron bir fanni vizual va ko'ngilochar dars berish usullarini qo'llash uchun qulayroq maydonga aylanmaydi. Savod o'rgatish jarayoni maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'limni o'zaro bog'laydigan va o'rganadigan yagona ta'lim jarayonidir. SHu bois, ushbu fanni o'qitish samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalari vositalari va o'qitish texnologiyalarini integratsiyalash asosida takomillashtirilgan dars o'tish mexanizmini ishlab chiqish talab etiladi. Bugungi kunda ta'limga yangicha yondashuvlarning tatbiq etish zaruriyati, ya'ni, ingliz tilidan "o'zaro ta'sir qilish" deb tarjima qilingan "interfaol o'quv vositasi" paydo bo'lmoqda. Interfaol o'quv vositasi - bu o'qituvchi va o'quvchilarga o'quv jarayonining barcha sub'ektlari bilan samarali o'zaro aloqani ta'minlaydigan, o'quv-ma'lumotlari oqimini boshqarish, o'quv jarayonini ijodiy va kognitiv hamkorlikka aylantiradigan vositadir. Bu esa komyuter texnologiyalari

yordamida o'qitish deganidir. Interfaol o'quv vositasi sifatida komyuterning amaliy va elektron ta'lim resurslarini o'quv jarayoniga joriy etish muammosining umumiy yondashuvlariga oid: M.H.Lutfillayev, B.S.Gershunskiy, I.V.Robert, N.F.Talyzina, E.S.Po'lat, V.P.Bespalko, N.V.Apatova, G.K.Selevko kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Mualliflar o'z asarlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning keng pedagogik imkoniyatlarini o'rgangan, shuningdek, uning xususiyatlari va ahamiyatini o'quv faoliyatining vositasi sifatida ko'rib chiqqan. Bu borada, M.H.Lutfillayevning fikriga ko'ra, interfaol o'qitish usullari o'quv jarayoniga muloqotni samarali tadbiriq etishdan iborat bo'lib, o'quvchini o'qishga faol jalb qilish sifatida tushuniladi. U o'zining tadqiqot ishlarida bugungi kunda interfaol o'qitish turlariga - munozara, guruhlarda ishlash, keys va komyuter texnologiyasidan foydalanib (taqdimotlar, komyuter imitatsion modeli, pedagogik dasturiy vositalar), o'qitish usullarini ta'kidlagan. Interfaol o'qitish usullari deyilganda, barcha o'quvchilar bilim olish jarayoniga va o'quv-ma'lumotlarni faol o'zlashtirishga jalb qilinishi tushuniladi.

Ushbu jarayonlarni Internet texnologiyalari orqali samarali amalga oshirish mumkin. Unda o'quvchilar uchun quyidagi imkoniyatlar yaratiladi: o'quv jarayonini yuqori estetik va emotsional bosqichga chiqaradi, differensiallashni ta'minlaydi; darsda bajarilgan ish hajmini sezilarli darajada oshiradi; bilim darajasini baholashni va nazorat qilishni takomillashtiradi; dars samaradorligini oshiradi, mustaqil ta'lim olishni ta'minlaydi.

Jahonda ushbu interfaol o'qitish usullarini qo'llash, fanga oid didaktik materiallarni va elektron ta'lim resurslarini ta'lim yaratish hamda axborot texnologiyalari vositalarining imkoniyatlaridan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarni samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, AQSH maktablarida elektron ta'lim rivojlangan bo'lib, undan o'quvchilar masofadan turib ta'lim olish va o'zini-o'zi mustaqil ravishda tarmoq orqali onlayn standart va nostandart testlari yordamida baholash imkoniyatiga ega. SHuningdek, ota-onalari farzandlarini fanlardan o'zlashtirgan bilimlarini onlayn kuzatib, tahlil qilib borish imkoniyati yaratilgan. AQSH ta'limi statistikasi milliy markazi ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunda 77% o'quv muassasalari Internet tarmog'idagi axborot texnologiyalaridan foydalanadi; 238-b].



Kanada davlatida Internet tarmog'i orqali ta'lim berishning 38 hil kurslari mavjud bo'lib, ulardan 3 tasi video konferentsiyalar orqali amalga oshiriladi. Kanada ekspertlarining 80% ning fikricha axborot texnologiyalari ta'limga ijobiy ta'sir etishi, bundan uy vazifasini bajarish uchun komyuter (52%), entsiklopediya (8%) va lug'atdan (6%) foydalanadi.

Buyuk Britaniyada maktab o'quvchilari o'quv jarayonida Internet va komyuterdan foydalanish 41% ni, Finlandiya 19 % ni, Ruminiya va Vengriyada esa 53 % dan yuqori. Ushbu davlatlarning 12-17 yoshli o'quvchilarini barchasi uy vazifalari va mustaqil ishlarini komyuter texnologiyalaridan foydalanib bajaradi. Avstraliyada esa mediata'lim 1-sinfdan majburiy predmetga aylantirilgan.

Undan uy sharoitida va dars vaqtida keng ko'lamda foydalanib kelinmoqda. Yaponiyada 1994-yildan boshlab "100 ta maktab tarmog'i" loyihasi doirasida Internet tarmog'iga mo'ljallangan elektron ta'lim resurslar yaratilib, ulardan maktab o'qituvchi va o'quvchilari foydalanib kelmoqda.

Janubiy Koreyada esa maktablar uchun Ye-learning o'qitish tizimi yaratilib, undan samarali foydalanib kelinmoqda. 2005-yilda "Bir o'quvchiga 1 ta kompyuter" loyihasi amalga oshirilgan [61; 26-b.]. 2013-yilda esa barcha maktablarda onlayn shaklda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish va o'z bilimini mustaqil ravishda baholash imkoniyati yaratilgan.

Rossiya Federatsiyasi 2001-2005-yillar oralig'ida yagona axborot ta'limini rivojlantirish maqsadida bir qancha ta'lim portallari yaratilib, ushbu yaratilgan portallarga 10 000 dan ortiq elektron ta'lim resurslari jamlanib, 42 ta hududiy masofaviy ta'lim markazi Internet tarmog'i orqali ta'lim berish uchun axborot-kommunikatsion qurilmalari bilan ta'minlandi. Qozog'istonda elektron ta'lim, virtual ta'limni joriy etish 2002- yildan boshlab rivojlantirish ishlari amalga oshirildi. Bugungi kunda Qozog'istonda kazntu.kz ta'lim portali yaratilib, unga 70 mingta elektron katalog joylashtirilgan. Bu borada, mamlakatimizning umumta'lim maktablari ta'lim jarayonini axborot texnologiyalari vositalari yordamida mamlakatimizning umumta'lim maktablari ta'lim jarayonini axborot texnologiyalari vositalari yordamida tashkil etish maqsadida Ziyonet axborot-ta'lim tarmog'i portal, Ochiq ta'lim video portal, Xalq ta'limi huzuridagi axborot ta'lim portali, Respublika ta'lim markazining web-saytlarini tashkil etilganligi muhim omil bo'lmoqda. Ziyonet axborot-ta'lim tarmog'i portali (ziyonet.uz) bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida salmoqli o'ringa ega bo'lib, respublika yoshlari hamda ta'lim oluvchilari uchun keng ko'lamli elektron ta'lim xizmatlarini joriy etishdan iborat. Ayni paytda, respublikamizda 9400 ta maktab so'nggi rusumdagi komyuterlar bilan ta'minlangan bo'lib, mazkur ta'lim muassasalarining barchasi Ziyonet axborot-ta'lim tarmog'iga ulangan.

SHuningdek, umumta'lim maktab o'qituvchilari va o'quvchilari uchun ochiq ta'lim video portali (uTube.uz)da ko'plab video ma'ruzalar va video darsliklar, turli yo'nalish bo'yicha seminarlar to'plangan. Ushbu video, portal ta'limolishning yangi shakllarini (masofali, sinxron, uzluksiz) joriy qilishni ta'minlaydi. SHu bilan birga, Xalq ta'limi huzuridagi axborot ta'lim portali (eduportal.uz) ga 493 nomdagi elektron ta'lim resurslari amaliyotga joriy etilgan. SHuningdek, Respublika ta'lim markaz (RTM)ining Websayti (rtm.uz) da, elektron darsliklar, multimedia ilovalari, uslubiy qo'llanma va tavsiyalar, elektron testlar, taqdimotlar, maqolalar, ma'ruzalar joylashtirilgan bo'lib, ushbu resurslar ta'lim



samaradorligini oshirishga xizmat qilib kelmoqda. Ammo, ushbu ta'lim portallarida aynan savod o'rgatishga doir, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashga mo'ljallangan elektron ta'lim resurslar hamda o'quvchilarning bilimni baholovchi va nazorat qiluvchi onlayn testlar banki yetarli darajada emas.

References:

1. Kuchkarova, M. A. (2020). Решение Нестандартных Задач Методом Рассуждения На Уроках Математики В Начальных Классах. Theoretical & Applied Science, (1), 682-685.
2. Kuchkarova, M. A. THE IMPORTANCE OF LOGICAL PROBLEMS IN DEVELOPING CRITICAL THINKING OF CHILDREN. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 171.
3. Kuchkarova, M. A., & Ganiyeva, S. (2023). FEATURES OF LOGICAL THINKING. Open Access Repository, 4(3), 674-679.
4. Kxoldorova, I. (2019). Antisemic relations of generative lexx in Uzbek language. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(6), 327-330.
5. Makhmuda, Q., & Maftuna, K. (2020). Creative tasks in mathematics lessons in primary classes. Proceeding of The ICECRS, 6, 398-400.
6. Mukhtoraliyevna, Z. S., & Egamberdiyevna, H. M. (2023). USE OF MODERN TEACHING METHODS IN MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY LESSONS OF PRIMARY CLASS. Open Access Repository, 4(3), 1092-1100.
7. Mukhtoraliyevna, Z. S., & Salimakhon, M. (2022). Psycholinguistics and Neurolinguistics of Bilingualism. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 387-391.
8. Tojimamatovich, J. V. (2023). CONCEPT AND ESSENCE OF INFORMATION SECURITY. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 643-647.
9. Tojimamatovich, J. V. (2023). Digital Transformation of Educational Management System. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 202-206.
10. Urinboyevna, E. Y. (2021). Classification of Integrative Education. International Journal of Culture and Modernity, 11, 162-164.
11. Urinboyevna, E. Y., & Shahruza, R. (2021). About Gender Equality and the Process of Ensuring It. International Journal of Innovative Analyzes and Emerging Technology, 1(7), 54-56.
12. Urinboyevna, E. Y., & Zarina, M. (2022). Existence of Integration in Secondary Schools. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 6, 119-124.
13. Valijonovna, K. I. (2022). THE CONCEPT AND ESSENCE OF DIVERGENT THINKING IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY. Gospodarka i Innowacje., 22, 86-94.
14. Valijonovna, X. I. (2022). METHODS OF INCREASING MOTIVATION TO READING BOOKS IN PRIMARY CLASSES. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(10), 199-205.
15. Valijonovna, X. I., & Kizi, K. G. K. (2022). National Values and Their Specific Characteristics. International Journal of Culture and Modernity, 14, 16-19.
16. Zokirova, S. M., & Axmedova, D. O. (2021). WORKING WITH BORROWINGS GIVEN IN DICTIONARIES OF PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS. Theoretical & Applied Science, (3), 275-278.
17. Zokirova, S. M., & Topvoldiyeva, Z. R. (2020). ABOUT BORROWINGS IN THE UZBEK LEXICON. Theoretical & Applied Science, (4), 701-705.



18. Зокирова, С. М. (2021). О ОМОСЕМАНТИЧЕСКОЙ КОНГРУЭНТНОСТИ В ЯЗЫКАХ. Редакционная коллегия.
19. Mukhtoralievna, Z. S. (2023). Educational Importance Of Using Didactic Games. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 19, 104-107.
20. Muxtoraliyevna, Z. S. (2023). BOLALARDA VATANPARVARLIK RUHIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY AHAMİYATI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(4), 517-523.
21. Muxtoraliyevna, Z. S. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA ORGANILADIGAN NASRIY VA NAZMIY ASARLARNING O 'RNI VA AHAMİYATI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(4), 510-516.